


**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ  
БУХОРО ВИЛОЯТИ КАСБИЙ ТАЪЛИМНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ВА МУВОФИҚЛАШТИРИШ  
ҲУДУДИЙ БОШҚАРМАСИ  
ПЕШКУ ТУМАН 2-СОН КАСБ-ҲУНАР МАКТАБИ**

**ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА  
ДУАЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ**

Республика илмий-амалий конференция материаллари



**Бухоро-2021**

Пахта чигити кунжарасини муаллақ ҳолатда кўп босқичли мой олиш қурилмасида мой ажратиб олиш жараёни моделлаштириш	
AMINOV A.SH., QULMANMATOV B.G'. Chizmachilik darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.	292
ЭЛМУРОДОВ А.С. Автоматизированное управление ковроткачим станком	295
РАХМАТУЛЛАЕВА Д. Профессионал таълим муассасалари ўқитувчиларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш	298
ШАРИПОВ Ж.О. Влияние антифрикционных алмазоподобных (dlc) покрытий на надежность процесса фрезерования без сож хромовых сплавов	300
МИРЗОЕВА И.Э., МИРЗОЕВА О.Э. География дарсларида инновацион ва педагогик технологиялардан фойдаланиш	303
ОРЗИЕВ М.З., ҲОЖИМУРОДОВ Ж.Э. Россия-Афғонистон: XX аср бошларида сиёсий ва иқтисодий муносабатлар тарихидан	306
ҒОҒУРОВ М. Технологик таълим тизимининг моддий-техник таъминотини мустақамлаш.	311
ХАСАНОВ Х. Электромагнитная сверхжизмаемость	314
НУРИДДИНОВА Н.З. Как выучить русский язык	326
НАЗАРОВА З.И. Таълим жараёнида зиёрат туризмининг ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари: имконият, муаммо ва ечимлар	329
МАМАТОВ D.Q. Maktabda chizmachilik darslarida "Buyum modelini yasash" orqali o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.	331
МУСИНОВА А.С., ҒУЛОМОВ Ш.Ж. Мис идишларни ясашининг техник усули	332
ABDURAZOQOVNA N.R., RAHMATOVA Z.SH. O'rta asrlarda rassom miniaturachilarni o'qitish metodlari tarixidan	335
МАМУРОВ И., МАМУРОВА Д.И., АСРОРОВА М. Coreldraw — незаменимый помощник профессионалов	337
БОЛТАЕВА С. Таълим ва тарбия ривожлантириш йўллари	339
TUXSANOVA V.R. Matoni bezash san'ati tarixi va uslublari (issiq, sovuq, tugunli batik)	341
DJURAYEVA L.R. Innovatsion pedagogik faoliyatning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati	343
АБДУРАХМОНОВ О.Р., САИДОВА М.Б. Автоматизированное управление уровнем при производстве чистой воды	348
НУРИЛЛАЕВА Н.Ш. Чет тилларни ўқитишда сифат самарадорлигига эришишининг педагогик ва психологик жиҳатлари	349
МАХМУДОВА С.Х. Ўқувчиларининг ўқиш саводхонлигини халқаро даражада баҳолаш	352
АЗИМОВА Н.Э., НАСИМОВА З.И. Очиқ таълим тизими таълим сифатини юқори кўтариш омили сифатида	355



нақдани бошлаб жорий йил якунига қадар бўлган даврда 3 ойдан ортиқ вақт давомида фаолият юритган ҳолларда шахсий жамғариб бориладиган пенсия тизими маълумотлари асосида шакллантирилади.

Олий таълим ташкилотларининг миллий рейтинги нуфузини ошириш максатлари:

- миллий рейтингда сўнгги 3 йил давомида донмий равишда биринчи 3 та ўриндан бирини эгаллаб келадиган олий таълим ташкилотларига олий маълумотли кадрлар тайёрлаш бўйича академик ва молиявий мустақиллик берилсин ҳамда мустақиллик мезонлари Европа университетлари ассоциацияси стандартларига мувофиқ қабул қилинади;

- миллий рейтингда биринчи 10 та ўридан бирини эгаллаган олий таълим ташкилотига мавжуд ихтисосликлар бўйича илмий унвонларни мустақил бериш ваколати берилди.

Шунингдек, ҳужжат билан Ахборот технологиялари, биология, кимё ва геология-минералогия фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражаларини бериш ваколати тақдим этиладиган илмий-тадқиқот ва олий таълим ташкилотлари рўйхати ҳам тасдиқланди.

Тошкент шаҳри, Тошкент вилояти, Нукус шаҳри ва вилоятлар марказларидаги навбатчилик коэффициентлари 0,7 дан паст бўлган умумтаълим муассасаларини тажриба-синов тариқасида хусусий сектор вакилларига 5 йилга ишончи бошқарувга (кейинчалик узайтириш ҳуқуқи билан) берилади.

## MATONI BEZASH SAN'ATI TARIXI VA USLUBLARI (ISSIQ, SOVUQ, TUGUNLI BATIK)

*V.R. Tuxsanova - BuxDU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Dekorativ san'atning ijtimoiy moyihati-uning kollektiv mahoratining mahsuli ekanligidandir, u nasllardan –nasllarga me'ros bo'lib o'tgan va o'zida bir qator qatlamlarni mujassamlashtirganki, uning qadimiy namunalari o'zbek xalqining tarixin shakllangan madaniyati belgilarini o'zida chuqur aks ettiradi. Xalqning dekorativ-amaliy san'atiga qiziqishning tobora ortib borayotganligiga uning tarixiy, madaniy roli, doston va musiqa, she'riyat va raqsda bo'lgani kabi xalq xarakterining eng teran xususiyatlari, estetik qarashlari, didi, dunyoqarashi va mahoratini o'zida namoyon qilish bilan belgilanadi.

O'zbekistonda badiiy gazlamalarni bezash san'ati chindan ham xalq san'atida misli ko'rilmagan hodisadir. O'zbek dekorativ san'ati qadim zamonlardan beri maqtovg'a sazovor bo'lib kelgan va o'zbek madaniyati rivojlanayotagan tarixiy sharoitda unga ahamiyat berilgan.

Ko'p asrlar davomida o'zbek xalqi bu san'atning boy hamda rangbarang amaliy badiiy an'analarini yaratib kelgan. Amaliy san'at xalqning turmush san'atidir. Uning eng muhim belgisi badiiy ijod bilan moddiy talabning chambarchas bog'langanligidandir, badiyat va amaliy –zaruriyatning o'zaro uzviy bog'liqligi ularning g'oyaviy- badiiy va ijtimoiy-amaliy mohiyatlarining birligini vujudga

keltiradi. Amaliy san'at asalarini shakllarining maqsadga muvofiqligi hamda shakl va tasvir birligi ajralib turadi.

Unda qadimiy xalq san'atining yuksak an'analari bilan birga hozirgi zamonni jonli his qilishda undaydigan san'at ajoyib tarzda mujassamlashgan. Gaglamani bezash san'atida ajoyib solnomaday, uning murakkab ko'p asrli tarixining, tarixiy davrlari aks etgan, ming-minglab mahoratli usta san'atkorlarning ijodi iz qoldirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida ko'pgina shahar va qishloqlarda (Marg'ilon, Namangan, Buxoro, Andijon, Samarqand, G'ijduvon, Urgut, Beshariq va boshqalar) xilma - xil sidirg'a va guldor ip-ipak va yarim ipak xomaki gazlamalar sodda va murakkab usulda to'qib chiqarilagan. Bu matolardan kiyim-kechak to'qshgan, uyni bezash uchun ham foydalanilgan. Ayniqsa paxta va ipakdan to'qilgan pishiq tuvutli matolar: duxoba, baxmal; chuvuq shoyilar: adras, beqasam, banaras; nafis va yengil ipak ro'mol: shildiroq va tovlanuvchi shohi-kanavuzlar: beqiyos ko'rkam, bo'yoqlarining bir-biridan tafovuti uyg'unligi bilan ajralib turadigan atlas yakro'ya, xonatlaslar: Farg'ona va Samarqandning mayin gulli choyshablari keng shuhrat qozongan.

Bu matolaning bezash usullari asosan guldor va yo'l-yo'l shaklda bo'lgan, ularning asosan o'ziga xosligi tarixining noaniq va xiraligidadir.

O'rta Osiyoda bu usul abrbandi deyiladi.

Abrbandi matolarni ishlab chiqarishda asosiy element rang bo'yoqlarning noaniq tarxli naqshlarda kamalaksimon birikishidir, chiviqli matolarni ishlab chiqarishda esa asosiy narsa har-xil rang va har-xil kattalikgagi yo'llarning turli ritmda-maromda almashinuvidir.

Chiviqli matolarda ham, abrbandi matolarda ham arqoq asosiy gul yasovchi ahamiyatiga ega, o'rish iplari esa mato gammasiga muayyan tus beradigan yordamchi rol o'ynaydi. Abrbandi matolarda gul yasovchi arqoq iplari dastgohga joylashtirilayotgan paytda albatta joyidan qo'zg'aladi. Shuning uchun gul tarxi noaniq tus oladi va shaklining muayyanligi yo'qoladi.

Natijada keskin farqsiz bir rangdan ikkinchi rangga ko'chadi.

O'zbek matolarida birinchi navbatda ranglar go'zalligi ko'zga yaqqol tashlanadi; sof, yorqin bo'yoqlar favqulotda nafis birikmalarda beriladi. Ustalar bir xilda butunlay bir-biriga zid, bir xilda esa bir-biriga nafis uyg'unlashgan hamohang ranglarni ishlatib, nihoyatda tig'iz ranglarni bunyod etishadi. Milliy matolarning ranglar tuzilishi zamirida go'yo qumlarning zarrin rangi, vodiy ko'klamzori, zillolliqi, botayotgan quyosh shafaqi, shaftoli va o'rikzor bog'larning gullari jilolanganday tuyiladi.

Amaliy-badiiy bezak san'ati-san'atning teatr va kino, musiqa, tasviriy san'at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatiga ko'ra amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llanilayotgan bezak san'ati ma'nosini anglatadi. Amaliy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari ishlab chiqarish korxonalarini bezatish bilan bog'liq.

O'zbekiston xalq san'atida mato naqshlash buyumlar alohida o'rin egallaydi. Mato naqshlash san'atining boshqa turlari zardo'zlik, kashtachilik, ganch va yog'och



o'ymakorligi, naqsh solish san'atlarini to'ldirib, turar joy va boshqa mayda ro'zg'or buyumlarini to'la-to'kis bezatishga yordam beradi.

Naqshlangan matolar xalq orasida keng foydalaniladi.

Matoni bezash san'ati, tarixi va uslublari: issiq, tugunakli va sovuq batik.

Turli-tuman naqshlangan matolar, ayniqsa amaliy bezak san'ati turlaridan biri bo'lib, faollik bilan badiiy madaniyatni turmushda olib kiradi. Ularning ommaviy ishlab chiqarish, matoga badiiy bezash san'atini o'rganishga alohida munosabat talab qiladi.

Matodagi rangli bezak taassurotlar ilk bor Planemiyaning "Tabiiy hikoyalarda" ko'rsatilgan. Matoning turli usullarda bezatilishi, har xil bezatish taassurotlarini vujudga keltiradi. Eng qadimiy chegaralanish uslublari ishlab, ya'ni matoni bo'yashda, chegaralangan joylarda bo'yoqning o'chmasligi uchun qo'llaniladi. Bularning barchasi bizning davrgacha yetib kelgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Искусство батика для начинающих студентов художественных вузов А.С.Т «Внешсигма» 2001 год
2. И. Дворника Ватик "Горячий, холодный, узелковый " ОАО, Радуга; Москва, 2002 год.
3. Р. Гилман "Художественная роспись ткани", Изд.1 сент ВЛАДОС;2003 год.
4. Р.А. Терелешина. "Батик отосновок импровизации ", Москва "Изо", "Барнетт" 2008 год.
5. R.Mirzaahmedov "Tabiiy bo'yoqlar siri", YUNESKO, 2007 yil.
6. S.S. Bulatov "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati", Toshkent, 1991 yil.
7. WWW.acm.ru
8. R. Xasanov "Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi", Guliston, 2003 yil.
9. E-mail: vlad@dol.ru

#### INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

L.R.Djurayeva—Buxoro davlat universiteti magistranti

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik faoliyat va innovatsion ta'lim shakllari, ingliz tili fani bo'yicha talabalar portfoliosini shakllantirish yo'llari yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion ta'lim, kreativ yondashuv, ijodiy qobiliyat, interfaol metodlar, ta'limning innovatsion shakllari, ta'lim samaradorligi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, portfolio.*

Globalashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama barkamol inson qilib voyaga yetkazish va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarini qisqa muddatda asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun